

TEMURIY MALIKALARINING HAYOTI VA FAOLIYATIGA NAZAR



<https://doi.org/10.5281/zenodo.14544992>

Farhodova Oynura Oybek Qizi

ALFRAGANUS UNIVERSITETI

Ijtimoiy fanlar fakulteti talabasi

Ilmiy rahbar: **Djurayev G‘olib Abdurasulovich**

Ijtimoiy fanlar kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqola temuriy malikalar hayoti undagi o‘rni, faoliyati, ilmiy merosi, malikalarimizning nafaqat oilada balki davlat ishlarida aql zakovatga egaligi tarixiy manbalar asosida aks ettiriladi.*

Kalit so‘zlar: *Saroymulkxonim, Gavharshodbegim, Amir Temur, Temuriylar, Movarounnahr, Xuroson, Tomaris, Samarqandiy, Suyunch Qutlug Og‘o, Turkon Xotun.*

“Har bir ishning vaqti bor, vaqt bilganing baxti yor” deb bejizga aytishmagan xalqimiz. Haqiqat shuki inson har tong yangi kunni qarshi olar ekan, uning ixtiyoriga bir kecha kunduz 24 soat vaqt beriladi. Bu insoniyat uchun har kuni yangi umr va imkoniyatdir. O‘tayotgan umrimizni o‘ylab ko‘rsak aslida bu aziz umrimiz suv kabi to‘xtovsiz o‘tib ketayotganini sezamiz. Ushbu varaqlar, kunlar esa bizning yaxshi yoki yomon amallarimizga guvoh bolmoqda.

Alloh taolo o‘z kalomida bandalariga xitob qilib, u o‘lim va hayotni sizlarning qaysilaringiz amalda yaxshiroq ekanligingizni sinash uchun yaratdi. U aziz va o‘ta magfiratlidir deb marhamat qilgan. Amir Temur, Xonzoda xonim kabi asar qahramonlari o‘lim belgi nishonalarini qilishadi. Sohibqiron tushida, Xonzoda xonim esa chinor kesilishida ajal tobora yaqinlashayotganini idrok etadi.

Amir Temur jamiyatdagi barcha tabaqalarning haq huquqlari va manfaatlarini inobatga olib ularning hayoti uchun zarur ijtimoiy zaminni vujudga keltirgan. Bu saroy xalq ishlari faqat Amir Temur zimmasida qolmay uning nikohidagi Bibixonim nomini olgan saroymulkxonim ham hissalarini katta bo‘lgan. Asar sahifalarida olamni oyog‘i ostida tis choktirgan olamning koziga tik qarab yashagan sohibqironning o‘ksib o‘rtanib yig‘lashiga guvoh bo‘lamiz. Har bir ishda qattiq qo‘l, sabr-bardoshli matonatli irodali Amir Temurdek zot ham farzandlarini qutqarib qolishga ojiz holatni korishimiz mumkin. Bu og‘ir vaziatda ham Saroymulkxonimning og‘ir holatini yashirishini ayol kishi bo‘lib turip matonatli, g‘ururli sabrli ayol qiyofasida korishimiz mumkin. O‘z davrida saltanat barpo etgan o‘zbek davlatchiligi va jahon

tarixiga munosib o‘rin egallaydi, buyuk sarkarda, ilm-fan homiysi Amir Temurdir. Amir Temur va temuriylar davri tarixi nafaqat o‘lkamizning balki, jahon sivilizatsiyasi taraqqiyotida umumetirof davr sifatida ko‘plab tadqiqotchilar e‘tiborini o‘ziga jalb qildi.¹

Tarixga nazar tashlar ekanmiz sharq ayollari davlat idoralarini boshqarishda fan madaniyat san‘at, ma‘naviyatni yuksaltirishda salmoqli hissa qo‘shganliklarini ularni dono va zukkoligiga, ayollik iffati va salohiyati, mard va jasurligi to‘grisida ko‘plab tarxiy ma‘lumotlar yetib kelgan. Nafaqat O‘zbekistonga balki bizga tanish bo‘lgan barcha mamlakatlarda ayollar orasida oqilona maslahat g‘oyalar yetuk donishmantlar zabardast o‘limlar, suhandonlar, zukko san‘atshunoslar yetishib chiqqan. Masalan, massagetlar hukumdori Tomaris Ispan qirolichasi Izabella, Arman malikasi Tamaralar o‘z davrinig yetuk siyosatdan hukumdorlari bo‘lganlar. Temuriylar davrida ham oqilona hukumdorlardan bir nechtasini misol qilib aytish mumkin. O‘z davrida buyuk saltanat barpo etgan davlatichiligida va jahon ham muhim ahamiyatga ega. Amir Temur davlatining idoralarini mustahkamlashda va uni boshqarishda mamlakatni iqtisodiy, xo‘jalik, obodonlashtirish mamlakatni madaniy jihatdan yuksaltirish Temuriy amirzodalarini zamon sohiblarini barkamol kishilar qilib tarbiyalashda saroy malikalirining sardori Saroymulkhonim xizmatlari cheksiz bo‘lgan.² Saroymulkhonim mo‘g‘ul xonlaridan Amir Qozag‘oning qizi. 1370-yil Amir Temur Amir Husayinni yengib uni qatl qildirgach Movorounahr hukumronligini o‘z qo‘liga oladi va o‘sha payt Amir Temur Amir Husaynning bir necha xotinlari bo‘lib ular orasidan Tarmashirxonning qizi Suyunch Qutlug‘ Og‘o Xorazmning ulug‘ bekasi edi. Amir Temur maqtulning xaramidagi malikalar orasidan Qazag‘onning qizi Saroymulkhonimni Bayon Sukduzning qizi Ulus og‘oni Xizr Yusurning qizi va Turkon xotunni tanlab olib idda muddati 3 oy o‘tgach o‘z nikohiga oladi. Keyinchalik Amir Temur Saroymulkhonimni nikohiga olgach ko‘ragon unvoniga Musharraf bo‘ladi. Bu iboraning ma‘nosi mog‘ulchadan olganda kuyov deyiladi. Amir Temur mog‘ul kuyovi ya‘ni ko‘ragon nomini olgan edi. Amir Temur Saroymulkhonimni nikohiga olishdan oldin uning xaramida boshqa xotinlari ham bor edi, ammo xon avlodiga mansub faqat Saroymulkhonim edi. U xaramdagilardan ulug‘rog‘i edi va Bibixonim nomini oladi. Bibixonim aql-zakovat, did-farosat, fikrlash doirasining kengligi bosh omil bo‘lgan. Tarixiy manbalarga ko‘ra Saroymulkhonim yuksak idrokli, farosatli tadbirkor husun-latofat borasida ham Benazir hisoblangan deb tariflashadi. Saroymul xonim tadbirkorlik taraflama ijtimoiy

¹ Adabiyot Nazaryasi. Ikki tomlik. 2tom. – Toshkent; Fan, 1979-234.

1. ² Fayziyev T. Temuriy shajarasi. Toshkent, 1995. 54-bet.

– siyosiy aloqalrni o‘z vaqtida sezuvchi mamlakat boshqarishda har taraflama aql zakovatga ega ayol edi. Ayniqsa ilmga katta e‘tibor qaratgan, tolibi ilmlarga homiylik qilgan. Keyinchalik Amir Temur davrida zakovatli dono ayollarga samimiy hurmati iltifot an‘analari temuriylar hukumronligi davrida saqlanib qolgan.³

Saroymulkhonim malika Gulbadanbegim, Movorounnahr Xuroson Hindistonning XV asr tarixi etnografiyasini o‘zida mujassam etgan Humoyunnoma asari muallifidir. Ular bilan Gavharshodbegim, Xonzoda begim, Nurjahonbegim Zebiniso begim ham davlatning siyosati xalq bilan munosabati orqali tarixda katta iz qoldirgan. Amir Temur saroyida joriy qilingan tartibga ko‘ra chet ellik elchilarni qabul qilish marosimlarida hukumdor yonida xotinlari ham ishtirok etgan. Ispan qiroli Genrix III ning Samarqand hukumdori Amir Temur huzuriga yuborgan elchisi Ruy Gonzales de Klavixoning yozishicha 1404-yil 8-sentyabr dushanba kuni Amir Temur Samrqand chetidagi Dilkusho bog‘ida elchilarni qabul qiladi. Qabul marosimi katta ziyofat va tantana bilan boshlangan Klavixoning hikoya qilishicha qabul marosimidi hukumdor Temur yonida Saroymulkhonim boshliq boshqa xotinlari ham yuzlariga parda tashlab otirganlar. Ispan qiroli yuborgan hadyalar orasida hukumdorga ko‘proq qizil mavut maqul bo‘lgan. Bu haqida o‘z xotinlari avval Saroymulkhonim bilan fikrlashdi. 1404 yil 17 oktyabr juma kuni saroymulkhonim ham katta ziyofat qiladi ziyofatda boshqa elchilar qatnashadi. Ular qatorida Klavixo ham bo‘ladi. Klavixo temur bog‘larida berilgan ziyofatning to‘kin-sochin bog‘larda rang barang ipak chodirlar, oltin kumush jihozlar bog‘larning o‘ta did bilan jihozlangani haqida maroq ila hikoya qiladi. Aytishlaricha, Saroymulkxonim bir kuni o‘z jamgarmasi hisobidan, savoblik uchun xudo yo‘liga bir madrasa bino qildirishga .Temurdan ijozat so‘raydi. Qozonxon tomonidan sovg‘a qilingan olmosni sotuvga qo‘yib madrasa qurulishni boshlaydi.

Bu madrasa qurlishida Saroymulkxonim tez-tez kelib boshqaruvga o‘z fikrini bildirib turgan ustaboshiga kam kustini aytib turgan. Ustaboshi bu muloqotni ichiga sig‘dira olmay atrofidagi ustalariga “yopiray ayol kishi ham shunchalik dono oqila boladimi? Xonim haqida eshitgan ta’riflarim to‘g‘ri ekan. Qani edi hamma ayollar ham shunday nafosatga ega bolsalar” - deb chuqur uf tortadi.

Ustaboshing beg‘ubor so‘zlari tez orada barcha qurulishdagi barcha usta va mardikorlar orasida tarqaladi. Bu vaziatda ham Saroymulkxonim qilgan harakati ham go‘zal. Amir Temur Bibixonimdan farzand ko‘rmagan ammo barcha nabirlarini Saroymilkxonim tarbiyasiga topshirgan edi. Keyinchalik Saroymulkxonim qurdirgan madrasa XIV asr oxiri va XV asr boshlarida Samarqanddagi madrasalar orasidagi

2. ³ Fayziyev T. Temuriy malikalar.Toshkent.Xalq merosi nashriyoti.1994. 3 -4 bet.

ulkan va mahobatligi jihatdan ajralib turgan. Madrasaga zamonasining yetuk muddarislari tayinlanib, ular tolibi ilmlarga diniy va dunyoviy ilmlardan dars bergan.

Saroymulkxonim madrasa tolibi ilmlarning ahvolidan tez-tez xabar olib, ularga homiylik qilib turgan. Rivoyatlarga ko‘ra, Saroyimulkxonim o‘z odaticha, qosh qoraygach, o‘zining yaqin kanizlari bilan kiyimlarini o‘zgartirib, madrasa tomon yo‘l oladi.

Tabiatan vatanparvar, bilimdon va zukko malikalar haqida gap ketganda o‘lima malika Gavharshodbegim mamlakat ravnaqi yo‘lida tinmay g‘amxorlik qiladi. Uning dasturida madaniy va ma‘rifiy hayot birinchi o‘rinda bo‘lgan. Shu boisdanmi, farzandlari va barcha nabiralari ilm-fan muxlislari bo‘lib, hatto g‘azal ham bitganlar. Gavharshodbegim Hirotdagi juda ko‘p qurilish ishlariga rahnamolik qildi.⁴

XULOSA

Amir Temur va Temuriylar davri mamlakatimiz tarixida uyg‘onish davri hisoblanadi. Fan va madaniyat rivojida nafaqat Temuriyzoda shahzodalar balkim malikalar mehnati ham mujjasamdir.

Saroymulkxonim sadoqatli yor, ulug‘ malika, ilm-fan homiysi nomi ostida tarixda muhrlangan temuriy malika. O‘rta asr sharoitida ayolning naqadar ulug‘ va qudratli kuch va aqlga ega ekanligini ko‘rsata olgan shaxs.⁵

Xulosa qilganimizda, yana ko‘hna tariximizga o‘z davrining zukko malikalari ko‘p bo‘lganligi Amir Temur va Temuriylar davlati poydevori mustahkamligi va uning gullab yashnashida temuriy malikalarining xizmati beqiyos bo‘lganligini ko‘rishimiz mumkin. Va shuniyam aytishimiz lozimki hozirgi davrdagi ayollarning davlatdagi o‘rni va Temuriylar davridagi o‘rnilar haqida so‘z ochsak, hozirgi kunda ayollar uchun har tomonlama o‘zlarining haq huquqlari teng hisoblangan. Tarixda ayollarning erkaklar bilan teng bo‘lishi, ular bilan bir xil kasb egasi bo‘lishi, ilm olishi bo‘lmagan. Shu asrga kelib esa o‘zimiz prezidentimiz tomonidan ham bu muammoni yechimini ochgan.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Prezident Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashuvdagi maruzasidan // Xalq so‘zi 2017-yil 4-avgust
2. Fayziyev T. Temuriy malikalar. Toshkent. Xalq merosi nashriyoti. 1994. 3-4 bet.
3. Azamat ziyo. O‘zbek ayollari tarix sahnasida. Toshkent an 2002. 18-bet.

3. ⁵ Prezident Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashuvdagi maruzasidan // Xalq so‘zi 2017-yil 4-avgust

4. Fayziyev T. Temuriy shajarasi. Toshkent, 1995. 54-bet.
5. Adabiyot Nazaryasi. Ikki tomlik. 2tom. – Toshkent; Fan, 1979. – 234.
6. Po‘Latov, S. N. M. (2020). Hindistonda pedagogic ta’limining rivojlanish bosqichlari. Science and Education, 1(Special Issue 1), 21-26.
7. Polatov, S. N. (2020). XIX ASR OXIRI XX ASR BOSHLARIDA HINDISTONDAGI IJTIMOIIY-SIYOSIIY VAZIIYAT. Academic Research In Educational Sciences, (4), 468-474.
8. Po‘Latov, S. N. M. (2021). MAHATMA GANDI FALSAFIIY QARASHLARIDA “MUTLOQ G ‘OYA” TUSHUNCHASI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1(5), 1134-1143.
9. Po‘Latov, S. N. M. (2020). Rabindranat tagorning Hindiston ilm-ma’rifatga qo’shgan hissasi. Science and Education, 1(Special Issue 1), 136-143.
10. Пулатов, Ш. Н. (2022). МАХАТМА ГАНДИ ФАЛСАФИЙ КОНЦЕПЦИЯСИДА “САТЯГРАХА” ТУШУНЧАСИ. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(Special Issue 23), 890-896.
11. Pulatov, S. N. M. (2022). AHIMSA TUSHUNCHASINING FALSAFIIY MOHIYATI. Academic research in educational sciences, 3(TSTU Conference 1), 162-166.
12. Po‘Latov, S. N. M. (2022). MAHATMA GANDINING INSON TABIATI HAQIDAGI QARASHLARI. Academic research in educational sciences, 3(3), 10-19.
13. Pulatov Sh.N. The Concept of “Truth” in the Philosophical Views of Mahatma Gandhi// Akshara Multidisciplinary Research Journal Peer-Reviewed & Refereed International Research Journal, India // E-ISSN: 2582-5429 Vol.02 Issue V, 2021. –P. 12-18
14. Пулатов, Ш. (2019). Философская концепция Махатмы Ганди. Востоковедения, 3(3), 214–224. извлечено от <https://inlibrary.uz/index.php/oriental-studies/article/view/15683>
15. Po‘latov Sh.N. Jaynizm diniy-falsafiy ta’limoti. 16-son Sharqshunoslar anjumani. Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, 2020 307-312.
16. Po‘latov Sh.N. Mahatma Gandhi diniy qarashlarining tahlili. NamDU ilmiy axborotnomasi. 2021 y. 8-son. 205-212 b.
17. Пулатов, Ш. Н. (2023). ХИНД ФАЛСАФАСИДАГИ ИНСОН МАСАЛАСИНИНГ МАХАТМА ГАНДИ ҚАРАШЛАРИГА ТАСИРИ. International scientific journal of Biruni, 2(3), 96-103.